



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI

Maryamxon Toxirova Muxammadin qizi

University of economics and pedagogy NOTM

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

maryamtoxirova1999@gmail.com

Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna

p.f.f.d.(PhD) dotsent

74mamuraxon@gmail.com

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxs rivojlanishining eng muhim davrida turib, ularning psixologik, aqliy, ijtimoiy va hissiy o'sish jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ushbu davrda bola dunyoqarashi, tafakkur doirasi, xulq-atvori va o'qishga bo'lgan munosabati shakllana boshlaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etish o'qituvchidan chuqur psixologik bilim, pedagogik mahorat va individual yondashuvni talab etadi.*

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos psixologik xususiyatlari — tafakkur, xotira, e'tibor, hissiyot va motivatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida o'qituvchining roli, dars jarayonida psixologik muhitni to'g'ri shakllantirishning ta'siri, hamda ta'lim samaradorligini oshirishda individual va interfaol metodlarning ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqotda bolalar tafakkurining ko'rgazmali-harakatli bosqichdan mantiqiy tahlil darajasiga o'tish jarayoni, ixtiyorsiz e'tibor va hissiy beqarorlik kabi yosh xususiyatlarining o'qitish uslublariga ta'siri ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, maqolada boshlang'ich ta'limda o'qituvchining psixologik madaniyati, empatiyasi va pedagogik kuzatuvchanligining ahamiyati tahlil etilib, zamonaviy ta'lim muhitida bolalarning o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari taklif etiladi.

Ushbu ish natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlovchi pedagoglar, psixologlar va ta'lim metodistlari uchun amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: *tafakkur, xulq-atvor, dunyoqarash, xotira, hissiy va ijtimoiy rivojlanish, individuallik, kreativlik, pedagogik mahorat, psixologik madaniyat, empatiya, muloqot, rag'batlantirish va motivatsiya, interfaol metod.*

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, odatda, 6–10 yosh oralig'idagi bolalardir. Bu yoshda bolaning psixik faoliyati, dunyoni idrok etish shakli, o'z kompetensiyasi va o'quv motivatsiyasi jadal rivojlanadi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning ruhiy jarayonlarini chuqur anglash orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishi lozim. Bolalarning psixologik xususiyatlarini quyida kengroq yoritiladi.

A. Psixologik xususiyatlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Tafakkur jarayoni

Boshlang'ich yoshdagi bolalar tafakkuri ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli shaklda rivojlanadi. Ya'ni, ular mavhum tushunchalarni emas, balki aniq predmetlar, harakatlar va misollar orqali o'rganishga moyildirlar. Masalan, "2+2=4" degan matematik ifodani bola dastlab faqat ko'rgazma orqali — ya'ni ikki olmani bir-biriga qo'shib ko'rish orqali tushunadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmalilik, amaliy mashg'ulotlar va tajriba asosidagi o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

- E'tibor va xotira

Bu yoshda e'tibor ixtiyorsiz bo'ladi, ya'ni bola unga yoqqan yoki hissiy jihatdan ta'sir qilgan narsaga ko'proq e'tibor qaratadi. Darsda e'tiborning beqarorligi sababli, o'qituvchi mashg'ulotni 10–15 daqiqalik qisqa, lekin qiziqarli bloklarga bo'lib o'tkazishi zarur.

Xotira ham asosan ixtiyorsiz bo'lib, bola uni hayratga solgan, quvonch uyg'otgan yoki unga salbiy ta'sir qilgan ma'lumotni tezroq eslab qoladi. Shuning uchun o'qituvchi ma'lumotni rang-barang, hissiyotli va hayotiy misollar orqali yetkazishi kerak.

- Hissiy va ijtimoiy rivojlanish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda ta'sirchan, samimiy va his-tuyg'ulari tez o'zgaruvchan bo'ladi. Ular o'qituvchining har bir so'zi va ohangidan ta'sirlanadilar. Shu bois, pedagog bolalarga nisbatan doimo ijobiy, sabrli va mehribon munosabatda bo'lishi kerak. O'qituvchining hissiy barqarorligi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, sinfdagi psixologik muhitni yaxshilaydi.

B.Pedagogik xususiyatlar

Boshlang'ich ta'lim davrida o'qituvchining metodik mahorati o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardandir. Shu davrda qo'llaniladigan o'qitish metodlari bolalarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

- O'qitish jarayonida individual yondashuv

Har bir bola o'ziga xos dunyoqarash, temperament va qobiliyatga ega. Shu sababli, bir xil usul barcha o'quvchilarga birday samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarning shaxsiy farqlarini aniqlab, ularga mos topshiriqlar berishi kerak. Masalan, tez fikrlovchi bolalarga murakkab masalalar, sekinroq o'zlashtiruvchi bolalarga esa ko'proq ko'rgazmali va bosqichma-bosqich topshiriqlar berish tavsiya etiladi.

- Rag'batlantirish va motivatsiya

Psixologlar fikricha, boshlang'ich sinfda o'qishga bo'lgan ichki motivatsiya hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli, tashqi rag'bat — maqtov, mukofot, e'tirof bolani o'qishga undovchi kuchli omil hisoblanadi. O'qituvchining "Ajoyib!", "Barakalla!" kabi so'zlari bolada o'ziga ishonch uyg'otadi. Ammo rag'bat har doim adolatli va o'z vaqtida bo'lishi kerak.

- Interfaol metodlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Zamonaviy ta'limda “aqliy hujum”, “rol o'ynash”, “fikrlar jadvali” kabi interfaol metodlar o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi. Bu metodlar orqali kreativ fikrlashga undaydi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyat orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda etishni, boshqalarni tinglashni va hamkorlikda yechim topishni o'rganadilar.

- O'qituvchining shaxsiy fazilatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchini ideal shaxs sifatida qabul qiladilar. Shu bois, o'qituvchi o'z xulqi, nutqi, kiyinish madaniyati va muloqot uslubi orqali o'quvchilarga na'munaviy bo'lishi zarur. O'qituvchining sabr-toqati, mehribonligi, adolatliligi va hazil-mutoyibaga moyilligi, yosh xususiyatini hisobga olishi o'quvchilar bilan sog'lom psixologik aloqa o'rnatishda katta rol o'ynaydi.

C. Ijtimoiy va axloqiy rivojlanish

Boshlang'ich sinf — bu bolaning jamiyat bilan faol muloqotga kirish davridir. Bu jarayonda bola oilaviy muhitdan maktab muhitiga o'tadi, bu esa ijtimoiylashuvni talab etadi. Sinfdoşlar bilan do'stlashish, jamoa bo'lib ishlash, o'z fikrini bildirish va boshqalar fikriga hurmat bilan qarash o'quvchilarning axloqiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi bu jarayonda bolalarda:

- o'zaro yordam;
- mehr-shafqat;
- mas'uliyat;
- vatanparvarlik;
- halollik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Bu jarayon faqat nazariy bilim orqali emas, balki darsdan tashqari tadbirlar, o'yinlar, jamoaviy loyihalar orqali ham amalga oshirilishi kerak. Chunki bola tarbiyani faqat so'z bilan emas, amal orqali o'zlashtiradi. Hozirgi zamon pedagogi — bu faqat bilim uzatuvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, innovatsiyalarni tatbiq etuvchi, tarbiyaviy va axloqiy me'yorlarni yetkazuvchi shaxsdir.

Boshlang'ich ta'lim — bu nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydigan eng muhim bosqichdir. Ushbu davrda bolaning psixik jarayonlari — tafakkur, e'tibor, xotira, hissiyot, irodaviy sifatlar faol rivojlanadi va ta'lim jarayonining muvaffaqiyati bevosita shu omillarni to'g'ri hisobga olish bilan bog'liq bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini, yashirin qobiliyatlarini inobatga olgan holda o'qitish ularning o'zlashtirish darajasini oshiradi, o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, o'qituvchi har bir o'quvchining yosh, shaxsiy va individual farqlarini chuqur o'rganib, darsni shunga mos tarzda tashkil etishi zarur.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida psixologik qulay muhitni yaratish juda muhimdir. O'quvchi o'zini qadrlangan, tushunilgan va rag'batlantirilgan his qilsa, o'qishga nisbatan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ijobiy munosabat shakllanadi. Buning uchun o‘qituvchi mehribon, sabrli va adolatli bo‘lishi, o‘quvchilarni kamsitmasdan, balki har birining yutug‘ini qadrlashga e‘tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. U nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarning hissiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga rahbarlik qiluvchi shaxs bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini kuzatib, ulardan ibrat oladilar. Shu bois, o‘qituvchining nutqi, odobi, muloqot madaniyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchi o‘quvchilarda ham shunday ijobiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga interfaol metodlarni, AKT vositalarini, o‘yin texnologiyalarini va ijodiy yondashuvni joriy etish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi, ularni mustaqil izlanishga, savol berishga va ijodiy fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik va pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida individual yondashuvni ta‘minlash bugungi ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga, mustahkam bilim, ijobiy xarakter va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. — Moskva: Pedagogika, 1984.
2. Elkonin D.B. Psixologiya obucheniya mladshix shkolnikov. — Moskva, 1996.
3. Xolbekov R. Pedagogika asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
5. Karimov B. “Zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari”, 2022

